

ABU ALI IBN SINO VA TARBIYA: BUYUK HAKIMNING TA'LIMIY QARASHLARI

Akramova Ziyoda Shukrullayevna

Alfraganus universiteti

Farmasevtika va kimyo kafedrası kata o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13625688>

Annotatsiya. Ushbu maqola buyuk olim va shifokor Abu Ali ibn Sinoning tarbiya va ta'limga oid qarashlarini o'rganadi. Ibn Sino nafaqat tibbiyot va falsafa sohasidagi asarlari bilan mashhur bo'lib, balki ta'lim va tarbiya masalalariga ham katta e'tibor qaratgan. Maqolada uning inson kamoloti, bilim olish jarayoni, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari hamda ta'lim usullari haqidagi fikrlari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, Ibn Sinoning zamonaviy pedagogika va ta'lim tizimiga ta'siri va uning g'oyalari bugungi kunda ham qanchalik dolzarb ekanligi haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, yoshlar tarbiyasi, sharq mutafakkirlari, ijtimoiy muhit, Avitsenna.

ABU ALI IBN SINO AND EDUCATION: OF THE GREAT JUDGE EDUCATIONAL VIEWS

Abstract. This article examines the views of the great scholar and physician Abu Ali Ibn Sina on education and training. Ibn Sina is famous not only for his works in the field of medicine and philosophy, but also paid great attention to the issues of education and training. The article analyzes in detail his views on human development, the process of learning, teacher-student relationships, and educational methods. Also, comments are made about Ibn Sina's impact on modern pedagogy and education system and how relevant his ideas are even today.

Key words: education, education, youth education, Eastern thinkers, social environment, Avicenna.

АБУ АЛИ ИБН СИНО И ОБРАЗОВАНИЕ: ВЕЛИКОГО СУДЬИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ

Аннотация. В данной статье рассматриваются взгляды великого учёного и врача Абу Али ибн Сины на образование и обучение. Ибн Сина известен не только своими трудами в области медицины и философии, но и большое внимание уделял вопросам образования и обучения. В статье подробно анализируются его взгляды на развитие человека, процесс обучения, взаимоотношения учителя и ученика, методы обучения. Также даются комментарии о влиянии Ибн Сины на современную педагогику и систему образования и о том, насколько актуальны его идеи даже в наши дни.

Ключевые слова: образование, просвещение, воспитание молодежи, восточные мыслители, социальная среда, Авиценна.

Har qaysi millatning, har bir insonning ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Bugungi kunda mamlakatimizda oilalar mustahkamligi va yosh avlodning yorug' kelajagini ta'minlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bu – oiladir". Zero, oila sog'lom bo'lsa, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam bo'lsa, mamlakatda barqarorlik hukm suradi. Bolalar tarbiyasiga nafaqat oila, ta'lim-tarbiya muassasalari balki mahalla ham ma'suldir. Chunki, farzand tarbiyasi ko'p omillarga, avvalo, axloqiy-ma'naviy muhitga ham bog'liq. Ta'lim-tarbiya muassasalari bilan oila hamkorligi bunda muhim ahamiyatga ega. Farzandlarimiz qalbida ona yurtga muhabbatni shakllantirish, ma'rifatli va ma'naviyatli shaxs sifatida voyaga yetishlarini ta'minlash, bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Sharq mutafakkirlarining qarashlarida sog'lom millatning vujudga kelishida oila, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa insonning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berishgan.

Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi kata ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rin berilgan. Allomalar o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor berganlar.

Dunyo ilm-fani va madaniyati tarixida Sharqda "Shayx ur-ra'is", G'arbda "Avitsenna" nomi bilan mashhur bo'lgan qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino ham o'z falsafiy qarashlarida odob-axloq, ta'lim-tarbiya masalalariga bevosita to'xtalib o'tadi va asarlarida bayon etadi. U 980-yilda Buxoroda tug'ilgan va o'zining ko'p qirralik iste'dodi bilan tibbiyot, falsafa, matematika, astronomiya, kimyo, musiqa kabi ko'plab sohalarda ulkan yutuqlarga erishgan.

Ibn Sino nafaqat buyuk olim va shifokor, balki insoniyat tarixida o'zidan chuqur iz qoldirgan mutafakkirdir. Uning asarlari va g'oyalari hanuzgacha ilmiy va falsafiy tadqiqotlar

uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Uning ilmiy merosi insoniyatning bilim va ma'rifatga bo'lgan intilishining yorqin namunasi hisoblanadi.

Uning fikricha, "Alloh insonga shunday kuchquvvat ato etganki, shu tufayli u ezgulikni yomonlikdan, intellektual yetuklik, kamolotni yolg'on-yashiq, adashish farq qiladi". Ushbu fikrlari orqali Ibn Sino dunyoni ma'naviy o'zlashtirish insonga xosligini ta'kidlab o'tgan. Aql nuridan bahramandligi sababli inson tabiatning ko'r-ko'rona tasodifiy kuchlari ta'siridan bir muncha ozod shaxsga aylanadi, hamda o'zining nazariy-amaliy faoliyatini aql mezoni talablariga moslashtiradi. Uning nazarida o'z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o'rab turuvchi abadiy makondir.

Shu jihatdan uning qadri beqiyos. Inson hamma boyliklarni tabiatdan oladi, undan o'ziga bilim topadi. Inson, deydi u, yaxshi va yomon mayllarning ijodkori bo'ladi va o'z xarakterini shakllantirib boradi, shuningdek, yaxshilikka moyillik inson tabiatini go'zallashtirsa, yomonlikka moyillik uning xulqini tubanlashtiradi.

Har qanday farzand ma'lum bir muhitda, ma'lum bir oilada dunyoga keladi. Uning kelajakda kim bo'lib yetishishi albatta bevosita farzandga beriladigan e'tiqodiy, axloqiy tarbiyaga bog'liqdir. Farzandlarga odob berish eng avvalo oiladan boshlanadi. Ma'nau yuksak, go'zal xulqqa ega ota-onalarning farzandlari ham odobli bo'ladi. Bu go'zal xulq, boshqalarning havasini keltiradigan odob-axloq inson ko'rki sanaladi. Go'zal xulq to'g'ri tarbiyaga daxldordir. Ota-ona farzandlarga yaxshi bilan yomonning, halol bilan haromning, ma'rifat bilan jaholatning, sahovat bilan baxillikning farqini aniq tushuntira bilishi va har doim ularni ezgulik yo'lga chorlashlari lozim bo'ladi.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan. Ibn Sino bolani jamiyatdan ajratib, alohida tarbiyalashga qarshi chiqib, bunday tarbiya bolani baxtsiz qiladi deydi.

"Oiladagi yomon tarbiya – deb uqtiradi olim, faqat shu oilaning o'zigagina ta'sir qilib qolmasdan, balki atrofdagi boshqa oilalarga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin". Haqiqatdan ham oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan milliy qadriyatlarni rivojlantirishni ta'minlaydigan yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy, jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan muqaddas maskan hisoblanadi. Oilada sog'lom muhitni yaratish esa, o'z navbatida, ham ota, ham onaning zimmasiga birdek mas'uliyat yuklaydi. Zero, ota-onada fidoiylik, halollik, mehr-muruvvat degan tushunchalar qay darajada rivojlangan, amaliyotda qay darajada

yo'lga qo'yilgan bo'lsa, farzand ham undan o'rnak olib, ularga munosib farzand bo'lib, vatanni avaylab, asrashga harakat qiladi.

Ibn Sino bola tarbiyasiga oid o'z fikr va mulohazalarini bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim topadi hamda bolalarga yaxshi munosib ism tanlashni ota-onasining dastlabki olijanob vazifalaridan hisoblaydi. Oila tarbiyasida eng avvalo, ota-onaning o'zi farzandlariga adolatligi va mehnatsevarligi bilan namuna bo'la olishi kerak. Fikrimizning dalili sifatida faylasuf Montesk'ening quyidagi fikrlarini keltirib o'tmoqchimiz: "bolalarda vatanga muhabbat uyg'otishning eng yaxshi vositasi – otalarning vatanni sevishtirishidir".

Mutafakkirning asarlarida ta'kidlanishicha, inson tabiatan axloqli yoki axloqsiz bo'lib tug'ilmaydi. Ular aslida hayotda shaxsiy va o'zgaruvchan tajribasi, ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadilar va muayyan ijtimoiy mavqega erishadilar. Ta'lim-tarbiya, boshqa kishilar ta'siri ostida inson ijobiy axloqiy fazilatlarni o'zida shakllantiradi yoki yomon sifatlar, xususiyatlar sohibiga aylanadi. Har bir inson tomonidan o'zida ijobiy axloqiy fazilatlarni kamol toptirish qanchalik qiyin bo'lsa, salbiy sifatlardan qutilish undan ham murakkabroqdir.

Oilada tarbiya jarayonining yaxshi yo'lga qo'yilganligi ta'lim-tarbiya muassasalarida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarni birmuncha yengillashtiradi. Yoshlarga bilim berish bilan bir qatorda ularning tarbiyasiga ham e'tibor qaratish vazifasi ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan ustoz – muallimlar zimmasiga mas'uliyat yuklaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mustahkam oilalarni shakllantirish, ularda sog'lom ruhiy muhitni qaror toptirish, oila tarbiyasining samaradorligini oshirish, oila muhitida tarbiyalangan farzandlarning har jihatdan yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishlarida milliy va muminsoniy axloqiy qadriyatlarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Oilalarning mustahkam bo'lishi, ularning totuvlik va farovonlikka erishuvi jamiyatda amal qilinayotgan ma'naviy-axloqiy me'yorlar, olib borilayotgan davlat siyosati mazmuni bilan belgilanadi. O'z navbatida jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lom bo'lishi oilalarda tashkil etilayotgan ijtimoiy tarbiyaning natijasi va samarasiga bog'liqdir.

Xulosa: Abu Ali ibn Sino (Avicenna) nafaqat tibbiyot va falsafa sohasidagi ulkan yutuqlari bilan, balki tarbiya va ta'limga oid qarashlari bilan ham o'z davrining yetakchi olimlaridan biri sifatida tanilgan.

Uning ta'limiy g'oyalari insonning aqliy va ma'naviy kamolotiga, shuningdek, insoniyatning umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalanishiga katta ahamiyat qaratadi. Ibn Sino o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida hurmat va e'tiborni birinchi o'ringa qo'yib, bilim olish jarayonining inson hayotidagi muhim ahamiyatini ta'kidlagan.

Uning asarlari zamonaviy ta'lim tizimi uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda va tarbiya sohasida chuqur ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ibn Sinoning shaxsiy faoliyati dunyoviy ilmlarni o'rganish haqidagi ta'limotlari, ta'lim-tarbiya haqidagi mulohazalari, umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Ibn Sinoning ta'limiy merosi nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham pedagogik tafakkur rivojiga katta hissa qo'shgan va bugungi kunda ham insoniyatga xizmat qilmoqda.

REFERENCES

1. "Haqiqat manzaralari". – T.: "Yangi asr avlodi", 2007.
2. Petrov, V. D. „Ibn Sina-velikiy sredneaziatskiy ucheniy ensiklopedist.“ Abu Ali Ibn Sina. Kanon vrachebnoy nauki. Tashkent, 1981
3. Ibn Sino. Tib ilmi sultoni [Wayback Machine](#) saytida [arxivlandi](#) (2010)
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., 2003. 9-bet
5. <https://arboblar.uz/uz/people/abu-ali-ibn-sina>
6. <https://ilmlar.uz/abu-ali-ibn-sino-asarlari-va-tarjimai-holi/>
7. Avicenna | Persian philosopher and scientist“, *Encyclopedia Britannica* (inglizcha), qaraldi: 2018-08-04